

ISSN 2181-1342

 Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

5-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 5 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

<i>Мараимова, Умида Исмаилжановна</i>	
КОРХОНА БОШҚАРУВИ АМАЛИЁТИДА МАРКЕТИНГ ДАСТУРЛАРИНИ АМАЛ ҚИЛИШИГА БАФИШЛАНГАН КОНЦЕПЦИЯЛАР .....	112-120
<i>Askarova Sevara Baxtiyorovna</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT DAVRIDA BIZNES VA TADBIRKORLIKNING AHAMIYATI .....	121-125
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна</i>	
ИЛК ЎРТА АСРЛАР ШАРҚ САНЪАТИДА РОМАНТИК ЙЎНАЛИШНИНГ ЭСТЕТИК АСОСЛАРИ .....	126-133
<i>Rizaev, Nodir Sobirovich</i>	
XX ASR BOSHLARIDA BUXORO JADIDLARINING IJTIMOIY- SIYOSIY QARASHLARI.....	134-138
<i>Шукруллаева Гулчехра Насруллаевна</i>	
ЖАЗО ГЕНЕЗИСИДАГИ АХЛОҚИЙ МУҲИТ ЖАРАЁНИНИ КОНЦЕПТУАЛ ТАДБИҚ ЭТИШНИНГ ФАЛСАФИЙ МАСАЛАЛАРИ .....	139-144
<i>Shokirov Toxirjon Nurmamatovich</i>	
MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASINING BAHS MAVZULARI .....	145-149
<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i>	
GNOSEOLOGIYADA TASAVVUFİY TAJRIBANI O'RNI VA AHAMIYATI .....	150-154
<i>Ganiev Sherxon Meytanboevich</i>	
HOZIRGI DAVR FANI VA FALSAFASIDA MADANIY VA MA'NAVIY-AXLOQIY TANLOVNI NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI .....	155-164
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Dalieva Madina Xabibullaevna, Kristian Kapone, Satibaldiyeva Nigora Alimqul qizi</i>	
TERMINOLOGIYADA TERMIN VA UNGA TENG BO'LGAN TUSHUNCHALARING TADQIQI .....	165-178
<i>Chorieva Iroda Kurbonboevna</i>	
TARKIBIDA TIBBIYOT XODIMLARI NOMLARI BO'LGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING TURLI HUSUSIYATIGA KO'RA TASNIFI .....	179-183
<i>Sharipov, Abdulaziz Akmalovich</i>	
GID-TARJIMONLAR NUTQINING O'RGANILISH ASPEKTLARI .....	184-188
<i>Urinova Tursunoy Urin kizi</i>	
LIBOS DIZAYNI VA MODASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH DAVRLARI HAMDA YO'LLARI .....	189-193
<i>Норматова Шоира Умаровна, Абдурахманова Мехрибон Дустмурадовна</i>	
ТИЛ ТАЪЛИМИДА БАДИЙ АДАБИЁТ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ .....	194-199
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i>	
«SIROJUL MUSLIMIN” VA «ARBA'IN” ASARLARIDA G'OYAVIY-BADIY TAHLILI .....	200-208
<i>Nazarov, Sardor Shamurodovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILI SO'Z BIRIKMALARI STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARNING QIYOSIY ASPEKTDA O'RGANILISHI .....	209-213

**Received:** 22 April 2024

**Accepted:** 1 May 2024

**Published:** 10 May 2024

*Article / Original Paper*

## **SOCIO-POLITICAL VIEWS OF BUKHARA'S JADIDS AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY**

**Rizayev, Nodir Sobirovich**

Independent researcher, Bukhara State University

**Abstract.** This article examines the socio-political life in Turkestan at the beginning of the 20<sup>th</sup> century and the reformist activities of the Bukhara school of Jadidism. We get an understanding of Jadi's views, reforms, and the problems faced by this movement and its impact on the socio-political landscape of Bukhara at that time.

**Key words:** Turkestan, Bukhara, jadids, socio-political views, progressive movement, traditionalism, reforms.

## **XX ASR BOSHLARIDA BUXORO JADIDLARINING IJTIMOIY- SIYOSIY QARASHLARI**

**Rizaev, Nodir Sobirovich**

Mustaqil tadqiqotchi, Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy - siyosiy hayot va unda buxoro jadidchilik maktabi nomoyondalarining islohotchilik faoliyati o'rganiladi. Jadidlarning qarashlari, islohotlari va biz bu harakat duch kelayotgan muammolar hamda uning o'sha davr Buxoro ijtimoiy-siyosiy manzarasiga ta'siri haqida tushunchaga ega bo'lamiz.

**Kalit so'zlar:** Turkiston, Buxoro, jadidlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar, ilg'or harakat, an'anaviylik, islohotlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N18>

**Kirish.** Turkiston muxtoriyatidagi turli siyosiy jarayonlar mintaqada ziyolilarning qarashlar xilma xilligiga olib keldi. Shu jumladan Buxoroda jadidchilik harakati namoyondalari XIX-asr oxiri — XX-asr boshlariga kelib o'z tashviqot va targ'ibot harakatlarini olib borishni kuchaytirdilar. Bu esa o'z navbatida harakatni nafaqat tarixiy, adabiy nuqtai nazardan o'rghanish, balki ijtimoiy siyosiy harakat sifatida o'rghanish davri kelganligidan dalolat beradi. Bugungi kunda jadidlar merosi o'rghanish, jadidchilik harakati, uning g'oyasi, falsafasi bilan bir katorda ijtimoiy – siyosiy qarashlarni o'rghanish ham muhim ekanligi ta'kidlanib kelinmoqda. Zero prezidentimiz ta'kidlaganlaridek – jadidlar merosini o'rghanish bugungi Yangi O'zbekiston uchun muhimdir[1]

Bu maqolada ularning bu boradagi qarashlari o'rghanilib, ilg'or g'oyalari va bunga nisbatan mavjud qarama qarshiliklar, harakatining Buxoroning an'anaviy, ijtimoiy-siyosiy tuzumiga ta'siriga e'tibor qaratiladi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Buxoro jadidlari va umuman jadidshunoslik borasidagi adabiyotlarni tahlil qilganimizda sovet davri, mustaqillik davrlarida yaratilayotgan

hamda xorijiy adabiyotlarni ko'rishimiz mumkin. Lekin aynan jadidlarning ijtimoiy - siyosiy qarashlari haqidagi adabiyotlar etarli emas. Shunday bo'lsada B.Qosimov o'z asarlarida jadidchilik harakati nomoyondalari faoliyati va qarashlari haqida to'xtalib o'tgan bo'lsa, D. Alimova asarlarida Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, taraqqiyatparvarlarning davlatchilik, musulmon madaniyatini isloh qilish borasidagi qarashlariga oid muhim ma'lumotlar beriladi. Q. Rajabov Buxorodagi jadidchilik harakatining umumiyligi hamda o'ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tahlil qilgan. S. Inoyatov o'z tadqiqotlarida buxoro jadidlari faoliyati bilan birgalikda ularning avlodlari va shajarasi haqida ma'lumotlar bergen. Q.Nazarov oxirgi yillarda jadidlar falsafasi, ularning g'oyaviy asoslari haqidagi tadqiqotlarini alohida qayd etish mumkin. Jadidshunos olim B.Ergashev o'z tadqiqotlarida Buxoro jadidlarining ijtimoiy – siyosiy faoliyatlariga alohida urg'u berib o'tgan. Hozirgi kunda kelib aynan buxoro jadidlari faoliyatini talqin qilish bo'yicha D.Jamolova, F.Temirov, Z.Abdurashidov kabi olimlarning faoliyatlarini ko'rib o'tishimiz mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada Buxoro jadidlarining ijtimoiy - siyosiy qarashlari muhokama qilinadi. Jadidlar harakati g'oyalari tahlil qilindi va hozirgi kun dolzARB masalalari bilan solishtirildi. Jadidlar tomonidan jamiyatni isloh qilish borasidagi yondashuvlari o'rGANildi.

**Tahlillar va natijalar.** Jadidchilik harakati XIX asrning oxiri XX asr boshilaridagi ijtimoiy-siyosiy voqealiklar bilan bevosita bog'liq. Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan Turkistonda, milliy-ozodlik harakati jadidlaring amalda paydo bolishiga sabab bo'ldi. Buxorodagi islohotchilik harakati murakkab va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Ko'hna zaminda jadidchilikning vujudga kelishida XX asr boshlarida Rossiya, Eron, Turkiyada kechgan inqilobiy harakatlar, amirlikdagi ma'rifatparvarlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan Fayzulla Xo'jaev, Abdurauf Fitrat, Ahmadjon Hamdiy, Abduvohid Munzim, Hamidxo'ja Mehriy, Sadriddin Ayniy, Xoja Rofe', Mukammal Burhon, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Atoxo'ja kabi ma'rifatparvarlarni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Jadidlar zamonaviy ta'lim, ilmiy bilimlar, ijtimoiy islohotlar tarafidori edilar. Ular konservativ diniy tuzum, hukmron elita va an'anachilarni o'z ichiga olgan Buxoroning an'anaviy ijtimoiy va siyosiy tuzumiga qarshi chiqishni maqsad qilgan hamda zamonaviy islohotlar tarafidori bo'lishgan .

Buxoro jadidlarining qarashlari zamirida zamonaviy ta'lim-tarbiyani isloh qilish va boshqaruv sohasini tartibga solish edi. Ular ta'lim dindan holi bo'lishini diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar olinish tarafidori edilar. Bu borada bir necha sa'y harakatlarni amalga oshirdilar, jumladan 1908 yil oktyabrda Abduvohid Munzim o'z uyida tojik tilida dars beruvchi ilk usuli jadid maktabini ochadi va bu maktabning ko'pgina natijalarga erishadi hamda faollar tomonidan olqishlanadi[2:210]. Lekin o'sha paytdagi eskicha qarash tarafidori tomonidan tayziqqa uchrab maktablar yopiladi.

Garchi ma'rifatparvarlarga mavjud konservativ kuchlar qarshi bo'lishsada lekin ular o'zlarining shijoatlarini to'xtatmadilar 1909 yil dekabrdan Sadriddin Ayniy, Abduvohid Munzim, Ahmadjon Hamdiy, Hamidxo'ja Mehriy, Hoji Rofe', Mukammal Burhonovlar "Tarbiyai atfol" jamiyatini tuzadi. Ma'rifatparvarlar yashirin ish olib borib, Termiz, Karki, Yangi Buxoro va G'ijduvonda jamiyatning 28 ta shaxobchasini ochdilar. Jamiyat o'z faoliyati davomida: ilmga tashna yoshlarga iqtisodiy va ma'naviy yordam ko'rsatib, ularni Rossiya hamda Turkiyada o'qitishga alohida e'tibor qaratdi; Rossiyaning musulmon shaharlarida, Turkiya va Eronda

chiquvchi matbuot nashrlari bilan buxoroliklarni tanishtirishga harakat qildi; noo'rin sarf-xarajatlar, to'y va ma'rakalardagi isrofgarchiliklarga qarshi kurashdi; hamda mavjud tuzumning noo'rin siyosatga qarshi bo'lib, xalqni har tomonlama o'zgarishiga da'vat etdilar.

Ma'rifatparvarlar qarashlarining yana bir muhim jihat shundaki – ular mavjud hokimiyatdan ijtimoiy islohotlar o'tkazishga da'vat etish edi. Jadidchilar ijtimoiy tengsizliklarni bartaraf etish va ijtimoiyadolatni ta'minlashni maqsad qilganlar. Bu borada Fayzulla Xo'jaev shunday degan edi "Buxoroda harakat boshqa yo'l bilan bordi. Buxoro jadidchiligi dehqonlar va mayda savdogarlarga tushadurgan soliq og'irliqlarini yengil qilish ham soliq ishlarini umumiyl tartibga solish to'g'risida ochilgan gapdan boshlab, tadrijiy sur'atda ko'p a'zolar, sho'balar va Buxoro xalqining har xil tabaqalari orasidagi o'ziga xayrixoh omma bilan birga haqiqiy bir yashirin jamiyatga aylana bordi" [3:63]. Bundan ko'rinish turibdiki jadidlar nafaqat ta'lim sohasida balkim davlat boshqaruv sohasini isloh qilish borasida ham harakatlar olib borishdi. Ular marginal guruqlar, jumladan, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish tarafdori bo'lib, ta'lim va imkoniyatlardan teng foydalanishga chaqirdilar. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tish joizki jadidlar ilgari surgan yuqoridagi taklif va muholazalar O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining ko'pgina moddalarini shakllantirishda g'oyaviy asos bo'lib xizmat qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan ko'rinish turibdiki jadidlar eskicha qarashlar zamon talabi emasligi va jamiyatda har bir fuqoroning o'rni bo'lishi hamda haq huquqlar teng taqsimlanishi kabi qarashlari o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayot uchun muhim jihat hisoblanadi.

Jadidlar ta'lim va ijtimoiy islohotlar bilan bir qatorda siyosiy o'zgarishlarga ham intildilar. Ular amirlikning avtokratik boshqaruviga qarshi chiqdilar va konstitutsiyaviy hukumat o'rnatishga chaqirdilar. Jadidlar qonun ustuvorligiga, mas'uliyatga, qarorlar qabul qilishda xalq fikri inobatga olinishini ta'kidlardilar. Ular barcha shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlaydigan yanada demokratik va vakillik tizimini yaratishni maqsad qilgan [4:64]. Natijalar va harakatlar samarasiz ketmadi.

1917 yil 7 aprel kuni Amir Olimxon islohotlar borasidagi o'zining farmonini imzoladi. Farmonda soliqlarniadolat asosida tartibga solish; Rossiya bilan savdoga alohida e'tibor berish; amaldorlar ustidan nazorat o'rnatish; foydali ilmlarning taraqqiy etishi uchun shariatga muvofiq chora-tadbirlar ko'rish; majlis saylash; davlat xazinasini ta'sis qilish va amirlik byudjetini belgilash; bosmaxona ochish; qamoqda saqlanayotganlarni ozod qilish ko'zda tutilgan edi.

Buxoro jadidlarining jamiyatni isloh qilish va yangicha qarashlarni shakllantirishga bo'lgan sa'y harakatlari turli tomonlarning qarshiliklariga uchragan. Konservativ diniy tuzilma o'z g'oyalarini o'rnatilgan islomiy tuzumga tahdid sifatida ko'rар edi, hukmron elita esa o'z kuch va obro'-e'tiborini yuqotishdan cho'chigan. Amirlikdagи eskicha qarash vakillari jadidchilarni Buxoro madaniy merosiga to'g'ri kelmaydigan g'arb g'oyalarini targ'ib etuvchi, deb qaraganlar.

Jadidchilar o'zları duch kelgan qiyinchiliklar va qarshiliklarga qaramay, islohotlarni amalga oshirishda sezilarli yutuqlarga erishdilar. Ular zamonaviy maktablar barpo etishdi, dunyoviy ta'limni joriy qilishdi, ayollarning bilim olishi va imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berishdi. Ularning g'oya va sa'y-harakatlari Buxoroning ijtimoiy-siyosiy manzarasida kelajakdagi o'zgarishlarga zamin yaratib, hududni pirovardida modernizatssiya qilishga hissa qo'shdi [5].

Buxoro jadidlari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy adolat va tenglikning asosiy tamoyillari adolatli jamiyat yaratishga qaratilgan edi. Bu tamoyillarga quyidagilar kiradi:

*Birinchidan.* Ta'lif olish imkoniyatlarini kengaytirish ya'ni barcha teng bilim olishga haqlidir g'oysini ilgari surdilar. Bu qarash hozirgi kundagi asosiy qonunlarimizda ko'rsatib o'tilganligi bilan muhimdir.

*Ikkinchidan.* Ayollarning ta'lif va imkoniyatlarini kengaytirishhamda ular ijtimoiy hayotda faolliklarini oshirish tarafдорлари edilar

*Uchinchidan.* Jadidlar odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki nasabiga ko'ra emas, balki qobiliyatları va yutuqlariga qarab mukofotlanadigan tizimni qo'llab quvvatlaganlar.

*To'rtinchidan.* Qonun ustuvorligi va mas'uliyat - jadidchilar konstitutsiyaviy hukumat o'rnatish va qonun ustuvorligini ta'minlashga chaqirdilar. Ular shaxslarni, shu jumladan hokimiyat lavozimlarida bo'lganlarni o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikka tortishga va adolatni ta'minlashga ishonishgan.

*Beshinchidan.* Ishtirokchilik boshqaruvi - jadidlar qarorlar qabul qilish jarayonlarida xalq ishtirokini targ'ib qilgan

Bu ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillari buxorolik jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida markaziy o'rinni tutib, ularning an'anaviy ijtimoiy tuzumga qarshi kurashish va Buxoroda ilg'or islohotlarni ilgari surish borasidagi sa'y-harakatlariga rahbarlik qilgan.

Buxoro jadidlarining islohotlari zamirida o'z davrining an'anaviy ijtimoiy-siyosiy tuzumiga qarshi kurashuvchi ilg'or g'oyalarni qamrab olganligi bilan ajralib turardi. Jadidlar tomonidan ijtimoiy – siyosiy faoliyat strategiyasini quyidagi yo'nalishda o'rganishimiz mumkin:

*Zamonaviy ta'lif:* jadidlar diniy ta'lilmotlardan tashqariga chiqadigan zamonaviy ta'lif tizimini targ'ib qildilar. Ular an'anaviy fanlardan tashqari ilmiy bilim, tanqidiy fikrlash va amaliy ko'nikmalar muhimligini ta'kidladilar. Ushbu istiqbolli yondashuv odamlarni taraqqiyot va rivojlanish uchun zarur vositalar bilan jihozlashga qaratilgan.

*Dunyoviylik:* jadidlar din va davlatni bir-biridan ajratishni taklif qildilar, diniy e'tiqodlar siyosiy qarorlarni talab qilmaydigan dunyoviy jamiyatni targ'ib qildilar. Ular shaxsning vijdon erkinligi va har qanday dinga e'tiqod qilish yoki umuman e'tiqod qilmaslik huquqi muhimligiga ishonishgan[6:58].

*Gender tengligi:* jadidlar konservativ jamiyatda gender tengligini targ'ib qilishda faol bo'lishgan. Ular ayollarning ta'lif olishi va imkoniyatlarini kengaytirish, ayollarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda to'liq ishtirok etish huquqlarini himoya qilishdi.

*Konstitutsiyaviylik:* jadidlar qonunga asoslangan konstitutsiyaviy hukumat o'rnatishga da'vat qildilar. Ular shaxsiy huquqlarini himoya qiladigan, hukmron elitaning javobgarligini ta'minlaydigan va demokratik boshqaruv asoslarini ta'minlaydigan yozma konstitutsiyaning muhimligiga ishonishgan.

*Milliy o'zlik:* jadidlar mintaqaning madaniy merosidan kelib chiqqan milliy o'zlikni anglash muhimligini ta'kidladilar. Ular ilg'or g'oyalarni va islohotlarni o'z bag'riga olgan holda Buxoroning o'ziga xos madaniy an'analari va qadriyatlarini saqlash va targ'ib qilishga intildi.

*Ijtimoiy adolat:* jadidlar ijtimoiy adolat tarafori bo'lib, ijtimoiy tengsizliklarni bartaraf etish va jamiyatning barcha a'zolari uchun teng imkoniyatlar yaratishni maqsad qilgan. Ular marginal guruhlarni ko'tarishga, qashshoqlikni yumshatishga va resurslarni yanada adolatli taqsimlashga intildi.

*Siyosiy ishtirok:* jadidlar xalqning siyosiy jarayonda faol ishtirok etishiga chaqirishgan. Ular kengroq siyosiy vakillik, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki va fuqarolar

erkinliklarini himoya qilish imkonini beradigan demokratik islohotlarni amalga oshirishga chaqirdilar.

**Xulosa va takliflar.** Buxoro jadidlarining faoliyati va qarashlari o‘z davridan oldinda bo‘lib, mintaqada kelajakdagi ilg‘or harakatlarga zamin yaratdi. Ularning zamonaviy, inklyuziv va adolatli jamiyat haqidagi qarashlari hozirgi Markaziy Osiyoda zamonaviy mustaqil davlatlar shakllanishida g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qildi. Hamda hozirgi davr ijtimoiy-siyosiy hayotida ularning faoliyat doiralari keng o‘rganilmoqda hamda amalda keng qo‘lanilmoqda.

Yangi O‘zbekiston barpo etilayotgan hozirgi davrda, milliy taraqqiyot uchun kurashgan, mustaqilligimizning g‘oyaviy va amaliy manbalarini yaratishda muhim bosqich bo‘lgan jadidchilikning ijtimoiy – siyosiy qarashlarni xolisona tahlil qilish, o‘rganish va hozirgi davr tarraqqiyot bosqichida ahamiyatini ko‘rsatish muhim vazifalirimizdan biridir.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Prezidentning “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigidan.Toshkent 11.12.2023
2. Айний С. Асарлар. 8 томлик. 1-том, Тошкент, “ЎзССР давлат Бадиий адабиёт нашриёти”, 1963. –Б.411
3. Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. Тошкент, “Фан”, 1997. – Б.174
4. Шарипов Р., Мухиддинова Ф. Ўзбекистон халқлари сиёсий-хуқуқий таълимотлари тарихи. – Т.: “ТДЮИ”, 2004. – Б. 317.
5. Abdirashidov.Z.Sh.2021.“Abdurauf Fitrat va Buxoroda jadidchilik”.Ўzbekiston: til va madaniyat 3. 30-53.
6. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Тошкент, “Университет”, 1999.-Б.220.
7. Турдиев, Б. (2024). JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(2).
8. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. *Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST)*, 7(1), 149-157.
9. Turdiyev B. Behbudi’s views on the spiritual renewal of society //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.